

AMIR TEMUR SHAXSIYATIGA TA'RIF

*Musurmonova Mohinur Ulug'bek qizi
Termiz Davlat Uneversiteti
fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurga ta'rif, uning oilasi, tug'ilgan joyi haqida, hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Kesh, barlos, "Zafarnoma", Zayniddin Tayobodiy, Rui Gonsales de Klavixo.

Hammamizga ma'lumki, buyuk sarkarda Amir Temur 1336-yil 9-aprel Kesh yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Temurning bolalik va yoshlik yillari ham Kesh vohasida o'tadi. Uning otasi Amir Tarag'ay barlos urug'inining oqsoqollaridan, onasi Takina xotun Kesh yurtining obro'li bekalaridan hisoblangan.¹ Amir Temur keyinchalik o'zining tarjimayi holini yozgan "Zafar yo'li" kitobida o'zining tug'ilishi haqida quyidagilarni bayon qiladi :" Men yoshlik kezlarimda otam amir Tarag'aydan u ko'rgan ajib bir tush haqidagi hikoyatini eshitgan edim . U aytagan edi : " Bir kun men uyqumda bir ro'yo ko'rinish, unda mening yonimga bir yosh , chiroqli , yuzidan arabga o'xhash yigit kelib, menga qilich berdi. Men qilichni qo'llimga olib, uni havoda o'ynata boshladim. Po'lat qilichning yarqirashidan jumla olam yorishdi ". Men amir Kuloldan bu tushimning ta'birini aytishini iltimos qildim. Amir Kulol " bu tushing payg'ambarona tush , Allah senga bir o'g'il beradi. U butun dunyoni zabit etib, hammani taslim qiladi , dunyoni har xil yangiliklar zulmatidan va adashishlardan xalos qiladi ", -dedi. ² Amir Temurning ismini shayx Shamsiddin Kulol qo'ygan bo'lib , bu ismni berishiga sabab Qur'ondag'i " al-Isro "surasining 16-oyatini o'qiyotganida unda "Tamuru " so'zi bo'lganligi uchun Temur ismini beradi. Amir Tarag'ay zamonasining o'ziga to'q kishilaridan bo'lgan . Bu esa Amir Temurning yoshligidanoq moddiy jihatani ta'minlangan holda o'sganligini bildiradi. U yoshligidan ham dunyoviy ham diniy bilimlarni egallagan. Zehnining o'tkirligi, tirishqoqliligi va iste'dodliligi bilan tengurlaridan ajralib turgan. Shuning uchun ham o'rta asr tarixchilari uning tarix, she'riyat , tibbiyat, matematika, astronomiya, me'morchilik borasidagi salohiyat haqida alohida so'z aytib o'tganlar. Tarixchi Hofiz Abruning yozishicha , Amir Temur kitob mutolaa qilishni hech kanda etmagan, shaxmat o'yinida zo'r mahoratga ega bo'lgan.³ Bundan tashqari u yoshligidan harbiy o'yinlarga ham qiziqqan . Tenqurlari bilan sipohiylikka oid o'yinlar bilan mashg'ul ham bo'lgan. Ba'zi manbalarda yozilishicha Temur yoshligida sho'xligi sababli qo'y o'g'irlayotganda yiqilishi oqibatida oyog'i shikastlanadi va shundan keyin oqsoqlanib qoladi.

1.A.Muhammadjonov "O'zbekiston tarixi " 7-sinf darslik. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T... 2017. 109-bet

2.Amir Temur ko'ragon " Zafar yo'li " (tarjimai hol) Toshkent-Nur -1992. 23-bet

3. A.Zamonov " O'zbekiston tarixi " 3-qism. darslik. "Bayoz" Toshkent 2023-yil. 34-35 bet.

Klavixoning yozishicha: " Temurbek bir vaqtlar jangda yaralangan va o'ng oyog'i bilan ikki barmog'i shikastlangan edi ".⁴ " Zafar yo'li" da esa bunday deyiladi: "

Seiston jangi ashaddiy bo'ldi. Men o'zim o'n ikki bahodirim bilan urushayotganlarning o'rtasiga tushib qoldim. Shu payt menga ikkita kamalak o'qi sanchildi: biri – oyog'imga , ikkinchisi – o'ng tirsagimga . Jangda qizishganidan yaradorligimni ham bilmabman. Jangdan so'ng Xurmuz tarafiga ketdim . Men u yerda biror muddat turib yaralarimni davoladim".⁵ O'z davrining tarixchilari tomonidan Amir Temurga atab ko'plab asarlar yozilgan. Yuqoridagilardan xulosa qilib Amir Temur faqat talonchi va bosqinchi bo'lган deya olmaymiz . O'zi "Temur tuziklari " da : " Saltanat ishlarini to'qqiz ulushini mashvarat , tadbir va kengash , qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim"⁶ "- deb yozadi. Amir Temur o'z davridagi buyuk davlat arbobi ham bo'lган . Saltanatda ko'plab qurish ishlarini ham amalgalash oshirgan. Undan bizgacha juda ham ko'p inshootlar , bog'lar va madrasa-yu masjidlar meros bo'lib qolgan. Mustaqillik yillaridan keyi Amir Temur shaxsi ulug'lanib , unga atab haykallar ham barpo etildi. Temurga ta'rif beradigan bo'sak : " Amir Temur bizning faxrimiz va g'ururimizdir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.A.Muhammadjonov "O'zbekiston tarixi " 7-sinf darslik. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. T... 2017. 109-bet
- 2.Amir Temur ko'ragon " Zafar yo'li " (tarjimai hol) Toshkent-Nur -1992. 23-bet
3. A.Zamonov " O'zbekiston tarixi " 3-qism. darslik. "Bayoz" Toshkent 2023-yil. 34-35 bet.
4. Rui Gonzales de Klavixo " Amir Temur Ispaniya elchisi nigohida" . U .Jo'rayev tarjimas "Zamin nashr" nashriyoti 2019. 75-bet.
- 5.. " Temur tuziklari" Shodlik nashriyoti, Toshkent 2020. 10 bet